

CHIRCHIQ DARYOSI YUQORI OQIMIDA YETISHTIRILAYOTGAN TRIPLOID KAMALAK GULBALIQ (*ONCORHYNCHUS MYKISS*) NAMUNALARINI LABORATORIYA SHAROITIDA O'RGANISH

Ismatolloyeva Aziza

Navoiy Davlat Universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22026621>

Annotatsiya

Mazkur tezisda Chirchiq daryosi yuqori oqimida qafas usulida yetishtirilayotgan triploid kamalak gulbaliq (*Oncorhynchus mykiss*) namunalarini laboratoriya sharoitida o'rganish natijalari bayon etilgan. Tadqiqot davomida baliqlarni qayta ishlash sexining texnologik jihozlari, sanitariya-gigiyena talablari, biometrik o'lchovlarni amalga oshirish sharoitlari hamda namunalarni saqlash usullari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: triploid kamalak gulbaliq, qafas akvakulturas, biometrik tahlil, laboratoriya tadqiqotlari, baliqni qayta ishlash, muzlatish.

Kirish

Bugungi kunda akvakultura tarmog'ida yetishtirilayotgan mahsulot sifatini oshirish va yo'qotishlarni kamaytirishda zamonaviy qayta ishlash texnologiyalarining o'rni katta. Ayniqsa, triploid kamalak gulbaliqlarini ilmiy tadqiq etishda namunalarni standart usullar asosida tayyorlash va laboratoriya sharoitida o'rganish ishonchli ilmiy natijalarni olish imkonini beradi.

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqot Chirchiq daryosi yuqori oqimida joylashgan qafas baliqchilik xo'jaligida olib borildi. Tajriba davomida triploid kamalak gulbaliq namunalari tanlab olinib, baliqni qayta ishlash sexida dastlabki ishlov berildi.

Qayta ishlash sexida quyidagi jihozlardan foydalanildi:

- zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan filetkastollari;
- chiqindilarni ajratish novlari;
- yuvish vannalari;
- muz ishlab chiqarish va baliqni muz bilan sovitish bunkeri (rasmda ko'rsatilgan uskuna).



2-rasm. Ko'rinib turgan uzun V-shakldagi metall nov chiqindilarni yig'ish va chiqarish tizimi hisoblanadi.

Vazifasi:

- Baliqni tozalash vaqtida hosil bo'ladigan bosh, ichak, tangacha va boshqa chiqindilarni yig'ish;
- Chiqindilarni alohida konteyner yoki utilizatsiya tizimiga yo'naltirish;
- Ish joyining tozaligini ta'minlash.

Baliqlarni qayta ishlashdan so'ng ularning tana vazni, umumiy uzunligi, standart uzunligi va boshqa biometrik ko'rsatkichlari o'lchandi.

Natijalar

Tashrif davomida qayta ishlash sexining oziq-ovqat xavfsizligi talablariga mos ravishda jihozlangani kuzatildi. Sexda ishlab chiqarilgan maydalangan muz baliq tana haroratini tez pasaytirish va mahsulot sifatini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.



2-rasm. Baliq mahsulotlarini dastlabki sovitish va sifatini saqlash uchun mo'ljallangan maydalangan muzni saqlash bunkeri bilan tanishish jarayoni (Chirchiq daryosi yuqori oqimidagi qafas baliqchilik xo'jaligi).

Tadqiqot davomida baliqni qayta ishlash sexida o'rnatilgan maydalangan muzni saqlash bunkeri o'rganildi (1-rasm). Ushbu uskuna baliq mahsulotlarini dastlabki sovitish, yangi holatini saqlash hamda mikrobiologik buzilish jarayonlarini sekinlashtirishga xizmat qiladi. Muz yordamida baliq tana haroratining qisqa vaqt ichida pasaytirilishi mahsulotning organoleptik va biologik sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur uskunadan foydalanish laboratoriya tadqiqotlari uchun olinadigan namunalarning sifatini buzilmagan holda saqlash va ishonchli biometrik hamda fiziologik tahlillarni o'tkazish imkonini beradi.

Laboratoriyada olingan biometrik ma'lumotlar keyinchalik triploid kamalak gulbaliqlarning o'sish ko'rsatkichlarini baholash, absolyut va nisbiy o'sish, o'rtacha sutkalik o'sish hamda maxsus o'sish tezligini (SGR) hisoblash uchun asos bo'ldi.

Xulosa

Chirchiq daryosi yuqori oqimida joylashgan qafas baliqchilik xo'jaligining laboratoriya va qayta ishlash sexi zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlangan bo'lib, baliqlarni gigiyenik talablarga muvofiq qayta ishlash hamda ilmiy tadqiqotlar uchun sifatli namunalarni tayyorlash imkonini beradi. Olingan natijalar triploid kamalak gulbaliqlarining biologik va xo'jalik jihatdan muhim ko'rsatkichlarini baholashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. FAO. *The State of World Fisheries and Aquaculture (SOFA)*. Rome, 2024.
2. Wedemeyer G.A. *Physiology of Fish in Intensive Culture Systems*. Chapman & Hall.
3. Timmons M.B., Ebeling J.M. *Recirculating Aquaculture*. Ithaca Publishing.